O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 93/94

Azizbek B. MUMINOV,
Tayanch doktorant, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: amuminov337@gmail.com, ORCID: 0000-0002-2733-1323.

Toshkent davlat texnika universiteti professori, t.f.d. R.Xoliqova taqrizi asosida

LORD JORJ N. KERZON VA JORJ DOBSONNING ZAKASPIY HARBIY TEMIR YO‘LIGA SIYOSIY-STRATEGIK BAHOSI

Annotatsiya

Maqolada Zakaspiy harbiy temir yo‘lining (1880–1888) siyosiy-strategik mohiyati masalasi ko‘tariladi: bu infratuzilma zamondosh xorijiy kuzatuvchilar nazarida tijoratmi yoki harbiy-strategik loyihami? Mavzu o‘zbek tarixshunosligida mustaqil manbashunoslik predmeti sifatida tizimli o‘rganilmaganligi bilan dolzarbdir. Metodologiya – tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik tahlili: Jorj Dobson (1890) va Lord Jorj N. Kerzon (1889) asarlaridagi so‘zma-so‘z iqtiboslar Norman, Kertis, Grem, Bonvalo va Lansdell guvohliklari bilan qiyoslanadi. Natijada podsho ma’muriyatining savdo-iqtisodiy asoslanishiga qaramay, yo‘lning kelib chiqishi generallar Skobelev va Annenkov faoliyati bilan bog‘liq holda mutlaqo harbiy-strategik bo‘lgani aniqlanadi, bu esa D. Xedrikning “imperiya texnologiyasi” nazariyasi va “Buyuk o‘yin” konsepsiyasini turkistonshunoslik amaliyotida tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Zakaspiy harbiy temir yo‘li, Lord Jorj Kerzon, Jorj Dobson, Turkiston o‘lkasi, Buyuk o‘yin, mustamlakachilik siyosati, geosiyosiy strategiya, imperiya texnologiyasi, Rossiya-Angliya raqobati, general Skobelev, general Annenkov, manbashunoslik tahlili.

ПОЛИТИКО-СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ТРАНСКАСПИЙСКОЙ ВОЕННОЙ ЖЕЛЕЗНОЙ ДОРОГИ, ДАННАЯ ЛОРДОМ ДЖОРДЖЕМ Н. КЕРЗОНОМ И ДЖОРДЖЕМ ДОБСОНОМ

Аннотация

В статье рассматривается проблема политико-стратегической сущности Закаспийской военной железной дороги (1880–1888 гг.): являлась ли эта инфраструктура, по оценке иностранных современников, торговым или военно-стратегическим проектом? Актуальность определяется отсутствием системного источниковедческого изучения вопроса в узбекской историографии. Методология – историко-сравнительный и источниковедческий анализ: дословные цитаты из сочинений Джорджа Добсона (1890) и лорда Джорджа Н. Керзона (1889) сопоставляются со свидетельствами Нормана, Кертиса, Грэма, Бонвало и Ланселла. Установлено, что, несмотря на официальное торгово-экономическое обоснование царской администрации, возникновение дороги, связанное с деятельностью генералов Скобелева и Анненкова, служило исключительно военно-стратегическим целям, что подтверждает применимость теории «инструментов империи» Д. Хедрика и концепции «Большой игры» к туркестановедению.

Ключевые слова: Закаспийская военная железная дорога, лорд Джордж Керзон, Джордж Добсон, Туркестанский край, Большая игра, колониальная политика, геостратегия, технология империи, англо-русское соперничество, генерал Скобелев, генерал Анненков, источниковедческий анализ.

THE POLITICAL-STRATEGIC ASSESSMENT OF THE TRANS-CASPIAN MILITARY RAILWAY BY LORD GEORGE N. CURZON AND GEORGE DOBSON

Annotation

The article addresses the political-strategic nature of the Transcaspian Military Railway (1880–1888): was this infrastructure, in the perception of contemporary foreign observers, a commercial or a military-strategic project? The relevance of the study lies in the absence of systematic source-critical research on this question in Uzbek historiography. The methodology is historical-comparative and source analysis: verbatim quotations from the works of George Dobson (1890) and Lord George N. Curzon (1889) are compared with the testimonies of Norman, Curtis, Graham, Bonvalot, and Lansdell. The study establishes that, despite the tsarist administration’s official commercial justification, the railway’s origin, tied to Generals Skobelev and Annenkov, served exclusively military-strategic purposes, confirming the applicability of Daniel Headrick’s “tools of empire” theory and the “Great Game” concept to Turkestan studies.

Key words: Transcaspian Military Railway, Lord George Curzon, George Dobson, Turkestan, Great Game, colonial policy, geostrategy, tools of empire, Anglo-Russian rivalry, General Skobelev, General Annenkov, source analysis.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan yirik infratuzilma loyihalaridan biri – Zakaspiy harbiy temir yo‘li (1880–1888-yillarda qurilgan, umumiy uzunligi deyarli 1400 verst) – nafaqat mintaqaning iqtisodiy-kommunikatsion qiyofasini tubdan o‘zgartirgan, balki o‘z davrining xalqaro siyosiy diqqatini ham o‘ziga tortgan. Podsho ma’muriyati ushbu yo‘lni rasman savdo-iqtisodiy ehtiyojlar – paxta xomashyosini tashish, mahalliy bozorlarni Rossiya sanoati mahsulotlari bilan ta’minlash – bilan izohlagan bo‘lsa-da, zamondosh xorijiy, xususan ingliz kuzatuvchilar bu rasmiy talqinga sira ishonch bildirmagan. Ular orasida ikki nom alohida ajralib turadi: Sankt-Peterburgdan Samarqandgacha bo‘lgan yo‘l bo‘ylab shaxsan sayohat qilgan va o‘z taassurotlarini “Russia’s Railway Advance into Central Asia” (1890) nomli asarida chop etgan ingliz muxbiri Jorj Dobson, hamda Buyuk Britaniya parlamenti a’zosi, keyinchalik Hindiston vitse-qiroli bo‘lgan va “Russia in Central Asia in

1889 and the Anglo-Russian Question” (1889) fundamental tadqiqotini yaratgan Lord Jorj Natanael Kerzon.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlarida ta’kidlanganidek, milliy tariximizni xolisona, mustamlakachilik davri mafkuraviy qoliplaridan xoli holda, boy manba bazasi asosida qayta o‘rganish va xorijiy tadqiqotchilarning Turkiston haqidagi qarashlarini ilmiy muomalaga kiritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [1]. Shu nuqtai nazardan, mavzuning dolzarbligi shundaki, Turkistonga uyushtirilgan xorijiy ekspeditsiyalar va ilmiy-siyosiy kuzatuvlar tarixini o‘rganishda mahalliy va rus tilidagi rasmiy hisobotlar bilan bir qatorda, mustaqil, ko‘pincha Rossiyaga raqib davlat vakillari tomonidan yozilgan manbalarning qiyosiy tahlili alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday manbalar podsho ma’muriyatining rasmiy versiyasidan farqli, tanqidiy va geosiyosiy nuqtai nazarni aks ettirib, tadqiqotchiga voqelikni ko‘p qirrali baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu ikki muallifning asarlari o‘zbek tarixshunosligida Zakaspiy temir yo‘li masalasi doirasida alohida manbashunoslik predmeti sifatida tizimli tahlil qilinmagan.

Tadqiqotning maqsadi – Dobson va Kerzon asarlaridagi so‘zma-so‘z matnlar asosida ularning Zakaspiy harbiy temir yo‘lining tabiati (harbiy-strategikmi yoki tijoriy-iqtisodiymi) haqidagi qarashlarini aniqlash, ularni bir-biri bilan hamda boshqa zamondosh ingliz sayyohlari (Genri Norman, Uilyam Kertis, Stiven Grem, Gabriel Bonvalo, Genri Lansdell) guvohliklari bilan qiyoslash va bu qarashlarni D. Xedrikning “imperiya texnologiyasi” nazariyasi hamda “Buyuk o‘yin” kontseptsiyasi kontekstida tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zakaspiy harbiy temir yo‘lining Angliya-Rossiya geosiyosiy raqobati kontekstidagi o‘rni jahon tarixshunosligida “Buyuk o‘yin” kontseptsiyasi doirasida keng yoritilgan. P. Xopkirk hamda K. Meyer va Sh. Brisakning fundamental tadqiqotlari ushbu geosiyosiy raqobatning umumiy manzarasini chizib bergan [8; 10], biroq ularda Dobson va Kerzon asarlari alohida manbashunoslik predmeti sifatida emas, balki umumiy kontekst sifatida qo‘llanilgan. D. Xedrikning “imperiya qurollari” (tools of empire) nazariyasi esa texnologiya, xususan temir yo‘l qurilishining mustamlakachilik ekspansiyasidagi rolini nazariy jihatdan asoslab bergan va mazkur tadqiqotning kontseptual asosini tashkil etadi [7].

A. Morrisonning Samarqand boshqaruviga oid tadqiqotlari Rossiya Turkistonidagi ma’muriy-infratuzilma siyosatini chuqur yoritgan bo‘lsa-da [11], unda temir yo‘l qurilishining xorijiy zamondosh baholari alohida tahlil ob’yekti bo‘lmagan. B. Smitning Kerzonga bag‘ishlangan tadqiqotlari uning Markaziy Osiyo sayohatlarini “imperiya strategiyasi” vositasi sifatida talqin qilib, muallifning siyosiy-publitsistik maqsadlarini ochib bergan [13; 14], N. Bannikovaning Dobson haqidagi biografik-manbashunoslik tadqiqoti esa muxbirning Rossiya bilan yaqin aloqalari uning kuzatuvlariga o‘ziga xos “ichkaridan kuzatuvchi” ob’ektivligini berganini ko‘rsatadi [16].

O‘zbek va rus tarixshunosligida G‘. Ahmadjonov hamda G. Xidoyatovning tadqiqotlari Angliya-Rossiya munosabatlarining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liq jihatlarini yoritgan [15; 17], I. Egamberdiyev bu raqobatning mintaqaviy ko‘lamini tahlil qilgan [18], K. Fursov esa Rossiya Turkistoni va Britaniya Hindistonidagi imperial iqtisodiy siyosatni qiyosiy nuqtai nazardan baholagan [19]. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda Dobson va Kerzonning Zakaspiy temir yo‘liga bag‘ishlangan birlamchi matnlari bevosita qiyosiy-manbashunoslik tahlil predmetiga aylantirilmagan – mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik tahlili usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot ob’ekti sifatida Jorj Dobsonning “Russia’s Railway Advance into Central Asia” (1890) va Lord Jorj N. Kerzonning “Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question” (1889) asarlaridagi Zakaspiy harbiy temir yo‘liga bag‘ishlangan bo‘limlar birlamchi manba sifatida tanlab olindi. Tahlil ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda har ikki muallifning so‘zma-so‘z matnlari ichki mantiqiy tahlil (ichki tanqid) usuli bilan o‘rganilib, ularning yo‘l tabiatiga oid xulosalari aniqlandi; ikkinchi bosqichda bu xulosalar beshta mustaqil zamondosh ingliz va fransuz sayyohi – Genri Norman, Uilyam Kertis, Stiven Grem, Gabriel Bonvalo, Genri Lansdell – guvohliklari bilan qiyosiy-tasdiqlash (tashqi tanqid) usuli orqali solishtirildi. Olingan xulosalar D. Xedrikning “imperiya texnologiyasi” nazariyasi va “Buyuk o‘yin” kontseptsiyasi nuqtai nazaridan tarixiy-kontekstual talqin qilindi.

Tahlil va natijalar. Zakaspiy temir yo‘lining qurilish tarixi bevosita Rossiya imperiyasining turkman cho‘llaridagi harbiy yurishlari bilan bog‘liq holda boshlangan.

Zakaspiy harbiy temir yo‘li: qisqacha tarixiy-geosiyosiy kontekst

Dobsonning o‘zi ta’kidlashicha, yo‘l g‘oyasi birinchi marta 1880-yilgi Axal-Teke ekspeditsiyasi davrida general Skobelev tomonidan amaliy shaklda ko‘tarilgan, shundan so‘ng imperiya harbiy transporti direktori general Annenkov maslahat va yordam ko‘rsatish uchun joyga chaqirilgan [5]. Shu tariqa, dastlab Kaspiy bo‘yidagi Mixaylovsk ko‘rfazidan Qizil-Arvatgacha cho‘zilgan tor segmentdan boshlangan yo‘l, 1888-yilga kelib Samarqandgacha yetkazilib, Kerzonning o‘z iborasi bilan aytganda, “sof strategik maqsadda, Axal vohasini tinchlantirish kabi aniq bir natijaga erishish uchun boshlangan ushbu kichik va kamtarona tashabbusdan Kaspiyni Samarqand bilan birlashtiruvchi 900 milya po‘lat” yo‘lga aylangan [4]. Bu rasmiy ravishda “Zakaspiy harbiy temir yo‘li” (Закаспийская военная железная дорога) deb atalgan bo‘lib, uning dastlabki boshqaruvi ham Harbiy vazirlik ixtiyorida bo‘lgan.

Jorj Dobsonning “harbiy tabiat — tijoriy niqob” dialektikasi

Jorj Dobson – Zakaspiy temir yo‘li bo‘ylab 1888–1889-yillarda shaxsan sayohat qilgan va voqealarni bevosita kuzatgan ingliz muxbiri sifatida – o‘z asarida yo‘lning ikki qatlamli tabiatini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, yo‘lning kelib chiqishi mutlaqo harbiy-strategik bo‘lgan, biroq vaqt o‘tishi bilan bu asl mohiyat Rossiyaning Markaziy Osiyo savdosini rivojlantirish siyosati bilan shu qadar chambarchas bog‘lanib ketganki, endilikda uning dastlabki harbiy maqsadlari haqida – hech bo‘lmaganda ommaviy ravishda – gap-so‘z qolmagan: muallifning o‘z so‘zlari bilan aytganda, “yangi temir yo‘l Rossiyada Markaziy Osiyo savdosining rivojlanishi bilan shu qadar chambarchas bog‘lanib ketdiki, endi uning dastlab qanday harbiy maqsadlar uchun boshlanganligi haqida – kamida ommaviy tarzda – hech narsa eshitilmaydi” [5].

Shu bilan birga, Dobson ushbu tijoriy niqobning aslida ikkinchi darajali ekanligini ham yashirmaydi: uning ta’kidlashicha, yo‘lning tijoriy istiqbollariga berilgan ahamiyat shu qadar kattaki, bu holat hatto kuzatuvchini ham chalg‘itib, uning tez sur’atlarda qurilishiga aslida nafaqat hozirgi kunda qondirilgan strategik talablar sabab bo‘lganini – tijoriy mulohazalar emas – unutishga majbur qiladi [5]. Boshqacha aytganda, Dobson tahlili shuni ko‘rsatadiki, yo‘lning iqtisodiy funksiyasi uning harbiy-strategik kelib chiqishini bekor qilmaydi, balki ustiga qo‘shilgan ikkilamchi qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Bu – muallifning bevosita yo‘l bo‘ylab sayohat qilgan muxbir sifatidagi empirik kuzatuvi bo‘lib, N. Bannikovaning tadqiqotiga ko‘ra, Dobson (1854–1938) o‘z faoliyoti davomida Rossiya imperiyasida uzoq yillar yashagan

va rus harbiy-siyosiy doiralari bilan yaqin aloqada bo‘lgan, bu esa uning tahliliga nisbatan ichkaridan kuzatuvchiga xos bo‘lgan o‘ziga xos ob’ektivlik bergan [16].

Lord Kerzonning eksklyuziv harbiy-strategik talqini

Lord Kerzon, aksincha, Rossiyaning tijoriy-iqtisodiy da’volariga mutlaqo ishonmaydi va o‘z tahlilida yo‘lning eksklyuziv ravishda harbiy-strategik vosita ekanligini qat’iy isbotlashga harakat qiladi [4]. Uning fikricha, imperiya o‘zining sof harbiy maqsadda, o‘zining strategik ehtiyojlari uchun qurilgan yo‘lini xalqlar uchun umumiy yo‘lga aylantirishga qodir bo‘lgan bunday bag‘rikenglikka shubha bilan qarash kerak [4]. Kerzon, general Annenkovning o‘zi tijoriy da’volarni doimo qo‘llab-quvvatlab kelganini tan olsa-da, bu yo‘lning dastlab yaratilish maqsadi emasligini, shuningdek rus jamoatchiligining ko‘pchiligi ham uni shu nuqtai nazardan ko‘rmasligini ta’kidlaydi [4].

Kerzon o‘z dalillarini faqat shaxsiy mulohazalar bilan emas, balki ommaviy axborot vositalari va harbiy amaldorlarning o‘z so‘zlari bilan ham mustahkamlaydi. Jumladan, u rus gazetalari yo‘l va uning atrofini tasvirlovchi rasmlarni har doim “Hindistonga boradigan yo‘lda” degan sarlavha bilan chop etganini qayd etadi [4] – bu geosiyosiy maqsadning ommaviy ongda ham yashirin qolmaganining dalili sifatida keltiriladi. Bosh shtab generali Sobolevning so‘zlarini keltirib, Kerzon Zakaspiy temir yo‘lini “oxirning boshlanishi” deb ta’riflagan harbiy doiralar pozitsiyasini ham fosh qiladi – bu “oxir” esa Hindga qarshi kelajakdagi rus yurishidan boshqa narsa bo‘lmagan [4]. Shuningdek, mashhur rus geografi va harbiysi general Nikolay Prjevalskiyning Kerzonga yo‘llagan maktubidan iqtibos keltirilib, unda yo‘l “jasoratli tashabbus” sifatida, ayniqsa kelajakda harbiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan [4].

Ikki muallif pozitsiyasining qiyosiy tahlili

Dobson va Kerzon asarlarini qiyosiy tahlil qilganda, ularning umumiy xulosasi – yo‘lning kelib chiqishi va asl maqsadi harbiy-strategik bo‘lgani – to‘liq mos kelishini ko‘rish mumkin. Biroq ikki muallif o‘rtasida nozik, ammo muhim farq mavjud. Dobson, muxbir sifatida, yo‘lning keyingi rivojida real tijoriy-iqtisodiy integratsiya yuz berganini inkor etmaydi – u buni ikkilamchi, lekin haqiqiy jarayon sifatida tan oladi. Kerzon esa, siyosatchi-publitsist sifatida, deyarli har qanday tijoriy argumentni imperiya strategik manfaatlarini niqoblash vositasi sifatida rad etadi, uning tahlili ko‘proq hal qiluvchi, qat’iy va ayblovchi ohangda yozilgan.

Bu farqni ikkala muallifning maqsad va janr xususiyatlari bilan izohlash mumkin. B. Smit tadqiqotlariga ko‘ra, Kerzon o‘z sayohatlarini ongli ravishda “imperiya strategiyasi” vositasi sifatida qurgan – uning Markaziy Osiyoga oid asarlari Britaniya imperial manfaatlarini himoya qilish va Rossiyaning Hindistonga tahdidini ko‘rsatib berish maqsadiga xizmat qilgan [13; 14]. Dobsonning vazifasi esa, aksincha, ko‘proq tasviriy-axborot xususiyatiga ega bo‘lib, u bevosita kuzatuvchi sifatida yo‘lning amaldagi, real holatini qayd etishga harakat qilgan. Shu sababli, ikkala muallifning yakuniy xulosalari bir xil bo‘lsa-da, ularning dalillash uslubi va emotsional ohangi farq qiladi: Dobsonda tavsiflash, Kerzonda esa fosh qilish ustunlik qiladi.

1-jadval

Dobson va Kerzon pozitsiyalarining qiyosiy tahlili

Mezon	Jorj Dobson (1890)	Lord Jorj N. Kerzon (1889)
Muallif maqomi	Ingliz muxbiri, yo‘l bo‘ylab shaxsan sayohat qilgan	Siyosatchi-publitsist, Britaniya parlamenti a’zosi
Yo‘lning tabiati haqidagi asosiy xulosa	Dastlab harbiy-strategik, keyinchalik tijoriy qatlam qo‘shilgan (ikki qatlamli)	Eksklyuziv ravishda harbiy-strategik; tijoriy asos — niqob
Tijoriy argumentlarga munosabat	Ikkinchi darajali, ammo haqiqiy jarayon sifatida tan olinadi	To‘liq rad etiladi, strategik manfaatni yashirish vositasi sifatida baholanadi
Asosiy dalillash usuli	Bevosita kuzatuv, tasviriy-axborot uslubi	Rasmiy va harbiy manbalar (gazetalar, general Sobolev, Prjevalskiy)
Umumiy xulosa	Yo‘lning kelib chiqishi harbiy-strategik	Yo‘lning kelib chiqishi harbiy-strategik

Manba: [5; 4] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Boshqa zamondosh kuzatuvchilar guvohligi bilan tasdiqlanishi

Dobson va Kerzonning xulosalari tasodifiy emasligini ko‘rsatish uchun, ularni boshqa zamondosh ingliz mualliflarining mustaqil guvohliklari bilan solishtirish o‘rinlidir. Genri Norman temir yo‘lning Mervdan Kushkagacha bo‘lgan harbiy tarmog‘i (Murg‘ob tarmog‘i) haqida yanada keskinroq fikr bildirib, uni “sof strategik va harbiy” deb ta’riflaydi hamda bu yo‘l na savdoga, na dehqonchilikka xizmat qilishini, balki faqat Britaniyaga qarshi qaratilgan qasddan qilingan harbiy podshoa ekanligini ta’kidlaydi [12]. Shu bilan birga, Norman asosiy magistral (Krasnovodsk–Samarqand) yo‘lining, garchi strategik niyatda qurilgan bo‘lsa-da, kutilmaganda yaxshi tijoriy daromad keltira boshlagani va harbiy boshqaruvdan fuqarolik boshqaruviga o‘tkazilganini ham qayd etadi [12] – bu Dobsonning ikki qatlamli talqiniga mos keladi.

Uilyam Kertis ham xuddi shunday pozitsiyani qo‘llab-quvvatlaydi: u rus hukumati temir yo‘lni xorijiy pudratchilar (jumladan amerikalik Berri) taklif qilgan tijoriy loyihalar o‘rniga, aynan harbiy maqsadlar uchun qurganini, shu sababli general Annenkovga ishni boshqarish topshirilganini yozadi [3]. Kertisning fikricha, Markaziy Osiyo temir yo‘li dastlab bir necha xonlikni bo‘ysundirish va “rusifikatsiya qilish” uchun zarur harbiy sxema bo‘lgan, tijoriy mulohazalar esa muhim hisoblanmagan [3].

Stiven Grem ham yo‘lning asl maqsadi turkmanlarni tinchlantirish bo‘lgani va u dastlab vaqtinchalik harbiy xususiyatga ega deb qaralganini tasdiqlaydi [6]. Fransuz sayyohi Gabriel Bonvalo, garchi fransuz bo‘lsa-da, ingliz doiralarining xavotirli pozitsiyasini aks ettirib, ruslarning yo‘l orqali Buxoroni qat’iy egallab olganini va Kavkaz hamda Turkiston armiyalari endi kuchlarini osonlik bilan birlashtira olishini ta’kidlaydi [2]. Nihoyat, Genri Lansdell yanada qat’iyroq xulosaga keladi: uning fikricha, ushbu yo‘l imperiya uchun faqat strategik maqsadlarda zarur bo‘lgan va agar Rossiya Marv bilan cheklanishni istasa, bu haqda hozircha o‘ylab o‘tirishning hojati yo‘q edi [9].

Shunday qilib, beshta mustaqil zamondosh muallif – Norman, Kertis, Grem, Bonvalo va Lansdell – Dobson va Kerzonning asosiy xulosasini to‘liq tasdiqlaydi: Zakaspiy harbiy temir yo‘li o‘z zamonasi xorijiy kuzatuvchilari nazarida

yakdillik bilan sof harbiy-strategik mahsulot sifatida baholangan. Olingan natijalar D. Xedrikning “imperiya qurollari” nazariyasini [7] va “Buyuk o‘yin” kontseptsiyasini [8; 10] aniq tasdiqlaydi: dastlab harbiy maqsadda yaratilgan Zakaspiy temir yo‘li infratuzilmasi keyinchalik mintaqani Rossiya sanoati uchun xomashyo bazasiga aylantirish vositasiga aylangan, bu esa texnologiyaning mustamlakachilik ekspansiyasidagi ikki funksiyaliligini (harbiy va iqtisodiy) yaqqol namoyon etadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalar chiqariladi:

1. Dobson va Kerzonning birlamchi matnlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Zakaspiy harbiy temir yo‘lining rasmiy podsho ma’muriyati tomonidan ilgari surilgan savdo-iqtisodiy asoslanishiga qaramay, zamondosh xorijiy kuzatuvchilar nazarida uning kelib chiqishi va asl mohiyati mutlaqo harbiy-strategik bo‘lgan.

2. Ikkala muallif ham ushbu xulosada birlashadi, biroq dalillash uslubida farqlanadi: Dobson yo‘lning ikki qatlamli (dastlab harbiy, keyinchalik qisman tijoriy) tabiatini tan olsa, Kerzon tijoriy argumentlarni to‘liq niqob sifatida rad etadi.

3. Bu xulosa Genri Norman, Uilyam Kertis, Stiven Grem, Gabriel Bonvalo va Genri Lansdell kabi besh mustaqil zamondosh muallif tomonidan ham to‘liq tasdiqlanadi, bu esa uning tasodifiy emas, balki davr xorijiy jamoatchiligining keng tarqalgan geosiyosiy talqinini aks ettiruvchi hodisa ekanini ko‘rsatadi.

4. D. Xedrikning “imperiya texnologiyasi” nazariyasi va “Buyuk o‘yin” kontseptsiyasi nuqtai nazaridan Zakaspiy temir yo‘li mustamlakachilik texnologiyalari tarixini o‘rganish uchun qimmatli namunaviy keys bo‘lib xizmat qiladi.

5. Turkistonga uyushtirilgan xorijiy ilmiy va publitsistik ekspeditsiyalar tarixini o‘rganishda faqat rus tilidagi rasmiy hisobotlarga emas, balki raqib imperiya vakillari tomonidan yozilgan mustaqil, tanqidiy manbalarga ham murojaat qilish zarurligi isbotlandi.

Keyingi tadqiqotlar uchun takliflar:

1. Dobson va Kerzon talqinlarini rus tilidagi rasmiy va norasmiy manbalar (jumladan, Turkiston general-gubernatorligi hisobotlari) bilan arxiv hujjatlari asosida chuqurroq qiyoslash;

2. Zakaspiy temir yo‘li qurilishi davridagi moliyaviy-statistik ma’lumotlarni (yuk aylanmasi, harbiy va tijoriy tashish nisbati) aniqlashtirish uchun arxiv fondlarini jalb etish;

3. Boshqa xorijiy mualliflar (shveytsariyalik, fransuz, amerikalik sayyohlar) asarlaridagi Zakaspiy temir yo‘liga oid baholarni kengroq qiyosiy tahlilga jalb qilish.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.
2. Bonvalot, G. Through the heart of Asia: over the Pamir to India: in 2 vols. / transl. from the French by C. B. Pitman; ill. by A. Pepin. – Vol. 1. – London: Chapman and Hall, Ltd., 1888. – 412 p.
3. Curtis W. E. Turkestan: “The Heart of Asia”. – New York: George H. Doran Company, 1911. – 373 p.
4. Curzon, G. N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question. – London: Longmans, Green and Co., 1889. – 535 p.
5. Dobson G. Russia’s railway advance into Central Asia: notes of a journey from St. Petersburg to Samarkand. – London: W. H. Allen & Co., 1890. – 466 p.
6. Graham S. Through Russian Central Asia. – New York: Macmillan, 1916. – 362 p.
7. Headrick, D. R. The Tools of Empire: Technology and European Imperialism in the Nineteenth Century. – New York: Oxford University Press, 1981. – 242 p.
8. Hopkirk P. The Great Game: on secret service in High Asia. – London: John Murray, 1990. – 600 p.
9. Lansdell, H. Russian Central Asia, including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv: in 2 vols. – Vol. II. – Boston: Houghton, Mifflin and Company, 1885. – 756 p.
10. Meyer, K. E., Brysac, S. B. Tournament of Shadows: The Great Game and the Race for Empire in Central Asia. – Washington: Counterpoint, 1999. – 705 p.
11. Morrison, A. Russian Rule in Samarkand 1868-1910. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 394 p.
12. Norman H. All the Russias: Travels and Studies in Contemporary European Russia, Finland, Siberia, the Caucasus, and Central Asia. – London: William Heinemann, 1902. – 524 p.
13. Smith B. L. “The Mammon of Unrighteousness”: Lord Curzon’s perception of Russia: master’s thesis. – Burnaby, BC: Simon Fraser University, 1998. – 132 p.
14. Smith B. L. Travel as imperial strategy: Lord Curzon and Britain’s Empire in the East // In: Empire to Orient: travels in the Near East and India, 1850–1914 / ed. by A. Behdad, L. Gartlan. – London; New York: Routledge, 2013. – P. 108-129.
15. Аҳмаджонов Ғ.А. Россия империяси Марказий Осиёда: (Чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати тарихи ва тарихнавислиги). – Тошкент: М.Ч.Таълим манбаи жамияти, 2003. – 270 б.
16. Банникова Н.В. Корреспондент Джордж Добсон (1854–1938): жизнь и работа в России // Новый исторический вестник. – 2016. – № 1 (47). – С. 28–39.
17. Хидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60–70-х гг.). – Ташкент: Фан, 1969. – 456 с.
18. Эгамбердиев И. Англия ва Россиянинг Марказий Осиёда мустамлакачилик сиёсатидаги рақобатлари. – Тошкент: Камалак, 2018. – 120 б.
19. Фурсов К.А. Имперская экономическая политика в Русском Туркестане и Британской Индии: сходства и различия // Восток (Oriens). – 2010. – № 6. – С. 28-44.